ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ATANAZAROVA SHOIRA ERKINOVNA

MOSLANGAN MANBALI MANFIY TARTIBLI MODIFITSIRLANGAN KORTEVEG-DE FRIZ TENGLAMASINI INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

UDK: 517.957

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ATANAZAROVA SHOIRA ERKINOVNA

MOSLANGAN MANBALI MANFIY TARTIBLI MODIFITSIRLANGAN KORTEVEG-DE FRIZ TENGLAMASINI INTEGRALLASH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1055 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Xorazm hududiy bo'linmasi va Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**O'razboyev Gayrat O'razaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Yaxshumuratov Alisher Bekchanovich** fizika-matematika fanlari doktori
	Baltayeva Umida Ismailovna fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.FM.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil "14" fevral soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-66-11, faks: (+99862) 224-67-00, e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-939 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99868) 224-67-00, faks: (+99862) 22467-00, e-mail: arm@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "02" fevral kuni tarqatildi.

(2026 yil 02(oy)dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

B. I. Abdullayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d, professor.

A. A. Reyimberganov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n.

B. A. Babajanov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d, professor.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda chiziqli differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari spektral masalalarni tadqiq qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda spektral analizning to‘g‘ri va teskari masalalari zamonaviy matematik fizika sohasida murakkab fizik jarayonlarni tavsiflovchi nochiziqli evolyutsion tenglamalarning aniq yechimlarini qurishda muhim tatbiqqa ega bo‘lib, differensial tenglamalar nazariyasi sohasida olib borilayotgan asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, bu masalalar geofizika, gidrodinamika, nochiziqli optika, akustika va kvant mexanikasining ayrim masalalarini hal qilishda hamda ilmiy-eksperimental tadqiqot usullarini joriy qilishda muhim o‘rin tutmoqda. Shuningdek, optik tolalar va nochiziqli kristallarda impulslarning tarqalish jarayonlarini modellashtiruvchi manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasinining tez kamayuvchi yechimlarini qurishda Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining teskari spektral masalalasi usulini tadbiq qilishga doir tadqiqotlarni olib borish bugungi kunda zamonaviy matematik fizikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda matematik fizika sohasida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar hamda ularning matritsaviy analoglariga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimini topish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu turdagi masalalar zamonaviy matematik fizikaning istiqbolli yo‘nalishlari qatoriga kirib, elektrodinamika, nochiziqli optika va plazma fizikasida to‘lqinlar evolyutsiyasi hamda ularning muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonlarini o‘rganishda keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli, tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar bilan bir qatorda moslangan manbali matritsaviy manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarning yechimlari mavjudligini ko‘rsatishga imkon beruvchi tadqiqotlarni ishlab chiqish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan chiziqli differensial tenglamalar sistemasi spektral nazariyasining dolzarb masalalarini yechish usullarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, birinchi tartibli oddiy differensial tenglamalar sistemasi spektral nazariyasi masalalarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi hamda sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari usullaridan foydalanib zamonaviy matematik fizikaning manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarining soliton yechimlarini qurish bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Matematika sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish, ularning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish matematika va uning tatbiqlari sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan[1]. Ushbu qaror ijrosini ta’minlashda matematik fizikaning moslangan manbali manfiy tartibli nochiziqli

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

evolyutsion tenglamalari hamda ularning matritsaviy analoglarini integrallash imkonini beruvchi sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalarini o‘rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiyadagi izlanish va tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasida fan va texnika taraqqiyotining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq olib borildi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi.

Jahonda zamonaviy matematik fizika sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda solitonlar nazariyasi va nochiziqli evolyutsion tenglamalarni sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida integrallash masalalari ko‘plab tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otgan. Sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli dastlab K.S. Gardner, J.M. Grin, M.D. Kruskal and R.M. Miuralar tomonidan klassik Korteveg-de Friz tenglamasi uchun qo‘yilgan boshlag‘ich qiymatli masalani yechishda qo‘llanilgan. Keyinchalik, P. Laks nochiziqli evolyutsion tenglamalar va chiziqli operatorlar orasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi ushbu $L_t = [L, B]$ formalizmni taklif etgan. Ushbu natijalar asosida V.E Zaxarov va A.B Shabat nochiziqli Shredinger tenglamasini, M. Vadati esa klassik modifitsirlangan Korteweg-de Friz tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallashga muvaffaq bo‘ldilar. M. J. Ablowits, D.J. Kaup, A.C. Nyuell va H. Segurlar V.E. Zaxarov va A.B. Shabat taklif etgan sxemaga nisbatan umumiyroq bo‘lgan AKNS sxemasini ishlab chiqdilar.

Modifitsirlangan Korteveg-de Friz (mKdF) tenglamasini integrallash Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasiga asoslanadi. Zaxarov-Shabat sistemasi uchun to‘g‘ri va teskari masalalar G. Gasimov, B.M. Levitan, V.E. Zaxarov, A.B. Shabat , I. S. Frolov, L.A. Takhtajan, L.D. Faddeev , R. K. Dodd, J. S. Eylbek, J.D. Gibbon, H.C. Morris, G.L. Lem, M. J. Ablowits, D.J. Kaup, A.C. Nyuell, H. Segur hamda A.B. Xasanov tomonidan o‘rganilgan. Jahon miqyosida Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalarini fizik jarayonlarni modellashtiruvchi nochiziqli evolyutsion tenglamalarga qo‘llash bo‘yicha T.Aktosun, C. van der Mee va F.Demontislar tomonidan salmoqli natijalarga erishilgan. Xususan, ular birinchilardan bo‘lib nochiziqli evolyutsion tenglamalarning oshkormas yechimlarini qurishga imkon beruvchi (A, B, C) uchlik matritsa usulini ishlab chiqishgan. Moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalar sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalari yordamida dastlab V.K. Melnikovning ishlarida, ularning matritsaviy analoglari esa N. Bondarenko tomonidan o‘rganilgan.

Mamlakatimizda ham sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalarini xususiy hosilali differensial tenglamalarga tadbiq etishda muhim natijalarga erishilgan. Xususan, moslangan manbali nochiziqli evolyutsion tenglamalar hamda ularning matritsaviy analoglari tez kamayuvchi hamda davriy funksiyalar sinfida A.B. Xasanov, G.O‘. O‘razboyev, A.B. Yaxshimuratov, B.A. Babajanov, U.A. Xoitmetov, A.A. Reyimberganov, I.I. Baltayeva, M.M. Xasanov va A.K. Babadjanovalar tomonidan integrallangan.

Xususiy hosilali differensial tenglamarni integrallash bo‘yicha keyingi tadqiqotlar manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar bilan bog‘liq. Manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar dastlab J.M. Veroski tomonidan keltirib chiqarilgan. Manfiy tartibli KdF tenglamasi va manfiy tartibli mKdF tenglamasi Z.J. Qiao, E.G. Fan, Sh. Yuan, J.Xu va A.M. Vazvazlar tomonidan turli xil analitik usullar yordamida integrallangan va ushbu tenglamalarning ko‘p solitonli yechimlari topilgan.

Mamlakatimizda manfiy tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar differensial operatorlar uchun to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida 2022 yildan buyon o‘rganila boshlagan. Shunga qaramasdan bugungi kunga qadar nafaqat mamlakatimiz, balki jahon miqyosida manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarni tadqiq etishda hamyurtlarimiz tomonidan samarali natijalarga erishilgan. Xususan, G.O‘. O‘razboyev, I.I. Baltayeva va A.K. Babadjanovalar tomonidan manfiy tartibli nochiziqli Shredinger tenglamasi keltirib chiqarildi. Manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar moslangan manbali va moslangan manbasiz hollarda turli xil funksiyalar sinfida A.B. Xasanov, G.O‘. O‘razboyev, A.B. Yaxshimuratov, A.A. Reyimberganov, I.I. Baltayeva, M.M. Xasanov va A.K. Babadjanovalarning ishlarida o‘rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Amaliy matematika va matematik fizika” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial operatorlar spektral nazariyasining nochiziqli evolyutsion tenglamalarga tadbiqlari” nomli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi (2021-2025 yillar) asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi va uning matritsaviy analoglarini moslangan manbali va moslangan manbasiz hollarda sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

manfiy tartibli mKdF va moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamalarining to‘la integrallanuvchi bo‘lishini tez kamayuvchi potensialga ega Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usulidan foydalanib isbotlash;

moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasining tez kamayuvchi funksiyalar sinfida ko‘p solitonli yechimini qurishga (A, B, C) matritsalar metodini tadbiq etish;

matritsaviy manfiy tartibli mKdF va matritsaviy moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamalariga qo‘yilgan Koshi masalasini Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usuli yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechish;

Tadqiqot obyekti manfiy tartibli mKdF tenglamasi, moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasi, harakatlanuvchi xos qiymatlarga mos moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasi, matritsaviy manfiy tartibli mKdF tenglamasi, moslangan manbali matritsaviy manfiy tartibli mKdF tenglamasi.

Tadqiqot predmeti tez kamayuvchi potensialga ega Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usulini manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalar va ularning matritsaviy analoglarini integrallash jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida xususiy hosilali tenglamalar, funksional tahlil va kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

manfiy tartibli mKdF tenglamasi bilan bog‘liq tez kamayuvchi potensialga ega Zaxarov-Shabat sistemasining sochilish nazariyasi berilganlari uchun evolyutsion tenglamalar sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida keltirib chiqarilgan;

Zaxarov-Shabat sistemasining sochilish nazariyasi berilganlari uchun keltirib chiqarilgan evolyutsion tenglamalar yordamida qurilgan potensial manfiy tartibli mKdF tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasining yechimidan iborat bo‘lishi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida isbotlangan;

moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasining to‘la integrallanuvchi bo‘lishi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalanib isbotlangan;

moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasining ko‘p solitonli yechimini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida qurishga (A, B, C) uchlik matritsa usuli tadbiq etilgan;

Zaxarov-Shabat sistemasi harakatlanuvchi xos qiymatlarga ega bo‘lgan holda moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida integrallangan;

matritsaviy manfiy tartibli mKdF tenglamasi tez kamayuvchi potensialga ega matritsaviy Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usuli yordamida integrallangan;

matritsaviy Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usulidan foydalanib matritsaviy moslangan manbali mKdF tenglamasi uchun Koshi masalasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- manfiy tartibli mKdF tenglamasi va uning matritsaviy analoglarini moslangan manbali va moslangan manbasiz hollarda tez kamayuvchi yechimlarini topish algoritmlari ishlab chiqilgan;

- natijalarni MATLAB dasturiy ta’minoti orqali amalga oshirish imkonini beruvchi moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasining yopiq shakldagi yechimini olish uchun (A,B,C) uchlik matritsa usulidan foydalanilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan vazifalarni o‘rganishda matematik fizika, funksional tahlil va kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, chekli ayirmali operatorlar uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usullaridan foydalanilgan va barcha isbotlar qat’iy matematik mulohazalarga tayanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy natijalarning chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi va turli fizik hodisalarni, masalan, transport oqimi modellari, doimiy manfiy egrilikka ega sirtlar geometriyasi, nochiziqli optika, lokal bo‘lmagan effektlarga ega ion-akustik solitonlarni tavsiflovchi matematik modellarga qo‘llanilishiga asoslangan.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundaki, taklif qilingan algoritmlar va aniq yechim usullari manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishda foydalanilishi va matematik fizika va muhandislik qo‘llanmalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sonli muhitlarda bevosita amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash bo‘yicha:

Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalanib, manfiy tartibli mKdF tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasini tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechish bo‘yicha olingan natijalardan Bayroyt universitetida DAAD dasturi tomonidan moliyalashtirilgan “Universitet professor-o‘qituvchilari va olimlari uchun ilmiy tadqiqotlar, 2024 (57693448)” ilmiy loyihasi doirasida matritsaviy manfiy tartibli Korteveg-de Friz tenglamasi uchun evolyutsion tenglamalarni keltirib chiqarishda foydalanilgan (Bayroyt universitetining ma‘lumotnomasi, Germaniya, 2025-yil 14-oktabr). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi sochilish nazariyasining teskari masalasi usulidan foydalanib matritsaviy manfiy tartibli Korteveg-de Friz tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi yechimini qurish algoritmini ishlab chiqish hamda olingan yechimlarning to‘lqinsimon harakatlarini MATLAB dasturiy ta’minoti yordamida vizuallashtirish imkonini bergan.;

Matritsaviy manfiy tartibli mKdF tenglamasini sochilish nazariyasining teskari masalasi usulida integrallash bo‘yicha olingan natijalardan Slovakiya Respublikasining “Talabalar, PhD talabalari, universitet o‘qituvchilari, tadqiqotchilar va rassomlarning harakatchanligini qo‘llab-quvvatlash, 2024” Milliy stipendiya dasturi tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy loyihada tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali matritsaviy sinus-Gordon tenglamasi bilan bog‘liq bo‘lgan operatorning sochilish nazariyasi berilganlari uchun evolyutsion tenglamalarni keltirib chiqarishda foydalanilgan (Slovakiya Fanlar akademiyasining Matematika institutining № 288\D1 sonli ma’lumotnomasi, Bratislava, 2025-yil 14-

oktabr). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi moslangan manbali matritsaviy sinus-Gordon tenglamasining oshkormas yechimlarini (A,B,C) uchlik matritsa usuli yordamida qurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, shu jumladan 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida 12 ta ilmiy ish chop qilingan. Doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shu jumladan 2 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 89 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi yechimini sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida qurish” deb nomlangan birinchi bobida manfiy tartibli mKdF tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yechilgan.

Bu bobning birinchi paragrafida manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarni keltirib chiqarish masalalari qaralgan. Rekursiya operatori nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning integrallanuvchanlik xossalarini o‘rganishda muhim matematik instrument hisoblanadi. P.J. Olver nochiziqli evolyutsion tenglamalarni ushbu

$$u_t = R^n \Delta_i(x,t), \quad i \ge 1, \quad n = 1,2,3,\dots \tag{1}$$

ko‘rinishda ifodalash mumkin ekanligini isbotlagan, bu yerda $\Delta_i(x,t)$ - qaralayotgan nochiziqli tenglama simmetriyalari, R esa ushbu tenglama uchun rekursiya operatori.

J.M. Veroski esa P.J. Olver go‘yasidan foydalanib manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarni keltirib chiqarish metodini taklif etgan. Xususan, (1) tenglikda R rekursiya operatorini manfiy darajalarini qo‘llab, ya’ni ushbu

$$R^n u_t = \Delta_i(x,t), \quad i \ge 1, \; n = 1,2,3,\dots$$

tenglikdan foydalanib, manfiy tartibli nochiziqli evolyutsion tenglamalarni keltirib chiqarish mumkin ekanligini isbotlagan. Keyinchalik, A.M. Vazvaz quyidagi

$$R = -\partial_x^2 - 4u - 4u_x \partial_x^{-1}(\cdot u), \quad (Rf = -f_{xx} - 4uf - 4u_x \partial_x^{-1}(fu))$$

rekursiya operatorini ushbu $Ru_t = u_x$ tenglikka qo‘llash natijasida ushbu

$$-u_{xxt} - 4u^2 u_t - 4u_x \partial_x^{-1}(u \cdot u_t) = u_x \tag{3}$$

manfiy tartibli mKdF tenglamasini keltirib chiqargan. Agar $\partial_x^{-1} = \int\limits_{-\infty}^{x} dx$ deb olsak hamda ushbu $\int\limits_{-\infty}^{x} 2u \cdot u_t dx = \eta$ belgilashni kiritsak, u holda (3) tenglama quyidagi

$$-u_{xxt} - 2u(\eta_x + 2uu_t\big|_{-\infty}) - 2u_x\eta - u_x = 0$$

ko‘rinishni oladi. Aytaylik, $u = u(x,t)$ funksiya tez kamayuvchi funksiyalar sinfiga tegishli bo‘lsin. U holda manfiy tartibli mKdF tenglamasi ushbu

$$\begin{cases} \eta_x = 2uu_t \\ u_{xt} + 2u\eta + u = 0 \end{cases} \tag{4}$$

tenglamalar sistemasi ko‘rinishida ifodalanadi. Keyingi paragraflarda (4) manfiy tartibli mKdF tenglamasi sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallash masalalari qaralgan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida quyidagi

$$\begin{cases} y_{1x} + i\xi y_1 = u(x) y_2 \\ y_{2x} - i\xi y_2 = -u(x) y_1, \end{cases} \quad -\infty < x < \infty, \tag{5}$$

Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masalalariga oid zaruriy ma’lumotlarni keltirilgan. (5) sistemani $Ly = \xi y$ ko‘rinishda yozish mumkin, bunda $y = (y_1, y_2)^T$ va L operator quyidagi ko‘rinishga ega

$$L = i\begin{pmatrix} \dfrac{d}{dx} & -u(x) \\ -u(x) & -\dfrac{d}{dx} \end{pmatrix}.$$

(5) sistemadagi $u(x)$ potensial haqiqiy funksiyadan iborat bo‘lib, ushbu

$$\int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)|u(x)|dx < \infty$$

shartni qanoatlantirsin. U holda (5) sistema $\phi(x,\xi)$ va $\psi(x,\xi)$ Yost yechimlarga ega bo‘lib, bu yechimlar $\mathrm{Im}\,\xi = 0$ da quyidagi asimptotikalar yordamida yagona aniqlanadi

$$\left.\begin{aligned} \phi(x,\xi) &\sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \\ \bar{\phi}(x,\xi) &\sim \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \end{aligned}\right\}, \quad x \to -\infty, \qquad \left.\begin{aligned} \psi(x,\xi) &\sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} \\ \bar{\psi}(x,\xi) &\sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} \end{aligned}\right\}, \quad x \to \infty.$$

$\{\psi, \bar{\psi}\}$ funksiyalar juftligi (5) sistemaninng chiziqli erkli yechimlarini tashkil qilganligi uchun, quyidagi yoyilma o‘rinli

$$\phi = a(\xi)\bar{\psi} + b(\xi)\psi, \quad \bar{\phi} = -\bar{a}(\xi)\psi + \bar{b}(\xi)\bar{\psi}, \quad \mathrm{Im}\,\xi = 0.$$

Bunda

$$a(\xi) = W\{\phi, \psi\}, \quad b = -W\{\phi, \bar{\psi}\},$$

bo‘lib, ushbu ayniyatlar o‘rinli

$$a(\xi)\bar{a}(\xi) + b(\xi)\bar{b}(\xi) = 1, \; \bar{a}(\xi) = a(-\xi), \; \bar{b}(\xi) = b(-\xi).$$

$a(\xi)$ funksiya yuqori yarim tekislikka ($\mathrm{Im}\,\xi > 0$) analitik davom qilib, u yerda ushbu

$$a(\xi) = 1 + \underline{\underline{O}}\left(|\xi|^{-1}\right), \qquad |\xi| \to \infty$$

asimptotiklarga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, $a(\xi)$ funksiya yuqori yarim tekislikda cheklita oddiy nollarga ega bo‘ladi va bu nollar L operatorning ξ_k, $k = 1, \ldots, N$, xos qiymatlari bilan ustma-ust tushadi. $a(\xi)$ funksiyaning haqiqiy o‘qda yotuvchi nollari L operatorning spektral maxsusliklari deb ataladi. Umuman olganda (5) o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan Zaxarov-Shabat sistemasi karrali xos qiymatlarga hamda spektral maxsusliklarga ega bo‘lishi mumkin. Ammo mazkur dissertatsiya ishida o‘z-o‘ziga qo‘shma bo‘lmagan Zaxarov-Shabat sistemasi oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, spektral maxsusliklarga ega bo‘lmasin deb faraz qilinadi. Shuning uchun ushbu tenglik

$$\phi(x,\xi_k)=b_k\psi(x,\xi_k),\ \ k=1,\dots,N.$$

o‘rinli.

Ushbu

$$\left\{ r^{+}\left(\xi\right)=\frac{b(\xi)}{a(\xi)},\ \xi\in R;\ \xi_k,\operatorname{Im}\xi_k>0;\ \ b_k,\ \ k=1,\dots,N \right\} \tag{6}$$

jamlanma L operatorning sochilish nazariyasi berilganlari deb ataladi. (5) sistemaning $\psi(x,\xi)$ Yost yechimi uchun ushbu

$$\psi(x,\xi)=\begin{pmatrix}0\\1\end{pmatrix}e^{i\xi x}+\int_x^{\infty}K\left(x,s\right)e^{i\xi s}ds$$

integral tasvir o‘rinli bo‘lib, bunda $K\left(x,s\right)=\begin{pmatrix}K_1\left(x,s\right)\\K_2\left(x,s\right)\end{pmatrix}$ yadro ushbu

$$\begin{cases} K_2(x,y,t)+\int_x^{\infty}K_1(x,s,t)F(s+y,t)ds=0 \\ -K_1(x,y,t)+F(x+y,t)+\int_x^{\infty}K_2(x,s,t)F(s+y,t)ds=0 \end{cases}$$

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamalar sistemasini yechimlaridan iborat bo‘ladi. Bu yerda $F(x)=\dfrac{1}{2\pi}\displaystyle\int_{-\infty}^{\infty}\frac{b(\xi)}{a(\xi)}e^{i\xi x}d\xi-i\sum_{j=1}^{N}c_je^{i\xi_j x},$ bo‘lib $c_k=\dfrac{b_k}{\dot a(\xi_k)}$, $\dot a(\xi_k)=\dfrac{\partial a(\xi)}{\partial\xi}\Big|_{\xi=\xi_k}$.

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamalar sistemasini yechimlari (5) sistemaning potensiali bilan quyidagicha

$$u(x)=-2K_1(x,x),\qquad -2K_2(x,x)=\int_x^{\infty}\left|u(s)\right|^2ds$$

bog‘langan.

Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri masalasi deb $u(x)$, $x\in R$ potensial berilgan holda sochilish nazariyasining berilganlari (6) ni topish masalasiga aytiladi. Va aksincha, sochilish nazariyasining berilganlari (6) ma’lum bo‘lgan holda $u(x)$, $x\in R$ potensialni aniqlash masalasiga Zaxarov-Shabat sistemasi uchun sochilish nazariyasining teskari masalasi deyiladi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafida manfiy tartibli mKdF tenglamasi uchun qo‘yilgan Koshi masalasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usulida yechilgan. Xususan, ushbu

$$\begin{cases} \eta_x = 2uu_t \\ u_{xt} + 2\eta u + u = 0, \;\; x\in\mathbb{R}, \;\; t\geq 0 \end{cases} \tag{7}$$

sistema quyidagi

$$u(x,0) = u_0(x)\,, \; x\in\mathbb{R} \tag{8}$$

boshlang‘ich shartda qaralgan. Bu yerda $u_0(x)$ boshlang‘ich funksiya haqiqiy funksiya bo‘lib, quyidagi shartlarni qanoatlantiradi

1. $\int_{\mathbb{R}} \left(1+|x|\right)^5 |u_0(x)| dx < \infty$,
2. $L(0) = i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0 \\ -u_0 & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ operator spektral maxsusliklarga ega emas va $2N$ ta $\xi_1(0), \xi_2(0), \ldots \xi_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, bunda $\operatorname{Im}\xi_k(0) > 0$, $\xi_{N+k}(0) = -\xi_k(0)$, $k = 1,\ldots,N$.

Aytaylik $u = u(x,t)$ va $\eta = \eta(x,t)$ funksiyalar yetarlicha silliq haqiqiy funksiyalar bo‘lib, ushbu sinfga tegishli bo‘lsin

$$\mathcal{L} = \left\{ \begin{array}{c} u\in C^2(\mathbb{R}\times(0,\infty))\cap(\mathbb{R}\times[0,\infty)), \;\; \eta\in C^{1,0}(\mathbb{R}\times(0,\infty)); \\ \lim\limits_{x\to\pm\infty}\eta(x,t) = 0, \;\; t\in\mathbb{R}; \\ \int\limits_{-\infty}^{+\infty}\left(1+|x|\right)\left(|u(x,t)| + |u_x(x,t)| + |u_t(x,t)| + |u_{xt}(x,t)|\right)dx < \infty, \;\; t\in\mathbb{R} \end{array} \right\}. \tag{9}$$

Ushbu paragrafda olingan asosiy natija quyidagi teoremada keltirilgan

1-Teorema. Aytaylik $\{u(x,t), \eta(x,t)\}$ funksiyalar juftligi (7)-(9) masalaning yechimi bo‘lsin. U holda ushbu

$$L(t) = i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u(x,t) \\ -u(x,t) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$$

operatorning sochilish nazariyasi berilganlari vaqt bo‘yicha quyidagicha o‘zgaradi

$$\frac{\partial r^+(\xi,t)}{\partial t} = \frac{i}{2\xi} r^+(\xi,t)\,, \; \xi\in\mathbb{R}\setminus\{0\},$$

$$\frac{d\xi_k}{dt} = 0\,, \qquad \frac{db_k(t)}{dt} = \frac{i}{2\xi_k} b_k(t), \quad k = 1,2,...,N.$$

Aytaylik (5) sistemaning sochilish nazariyasi berilganlari uchun quyidagi shartlar bajarilsin:

a) $\{\xi_k\}_{k=1}^N \subset \mathbb{C}$- diskret xos qiymatlar, $\operatorname{Im}\xi_k \geq 0$ va $\{c_k\}_{k=1}^N \subset \mathbb{C}$ - normallovchi o‘zgarmaslar bo‘lib, $c_k = \overline{c}_k$;

b) $r_0^+ : \mathbb{R}\to\mathbb{C}$ qaytish koeffisienti uchun ushbu

$$\left|r_0^+(\xi)\right| < 1, \; r_0^+(-\xi) = \overline{r}_0^+(\xi)\,, \; r_0^+(\xi) = o(\xi^{-1}), \;\; \xi\to\pm\infty,$$

$$\int_{\mathbb{R}}\left(\left|r_0^+(\xi)\right|+\left|\frac{d}{d\xi}r_0^+(\xi)\right|+\left|\frac{d^2}{d\xi^2}r_0^+(\xi)\right|\right)\left(1+|\xi|\right)^3 d\xi<\infty$$

munosabatlar o‘rinli.

1-Teoremaning natijalaridan foydalanib, (7)-(9) masalaning yechimini topish uchun quyidagi algoritmdan foydalanilgan

Algoritm 1.

1. $u(0)$ berilgan holda $\left\{r^+{}_0(\xi);\ \xi_k(0);\ b_k(0),\quad k=1,\ldots,N\right\}$ jamlanma topiladi.

2. 1– Teorema natijalaridan foydalanib, ushbu funksiya aniqlanadi

$$F(x,t)=\frac{1}{2\pi}\int_{-\infty}^{\infty}r_0^+(0,\xi)e^{\frac{i}{2\xi}t+i\xi x}d\xi-i\sum_{k=1}^{N}c_k(0)e^{\frac{i}{2\xi_k}t+i\xi_k x}.$$

3. Ushbu $\begin{cases} K_2(x,y,t)+\int_x^{\infty}K_1(x,s,t)F(s+y,t)ds=0 \\ -K_1(x,y,t)+F(x+y,t)+\int_x^{\infty}K_2(x,s,t)F(s+y,t)ds=0\end{cases}$ sistemaning

$K(x,y,t)=\begin{pmatrix}K_1(x,y,t)\\K_2(x,y,t)\end{pmatrix}$ yechimi topiladi.

4. Ushbu

$$u(x,t)=-2K_1(x,x),\quad \eta_x(x,t)=2u(x,t)u_t(x,t)$$

formulalar yordamida $u(x,t)$ va $\eta(x,t)$ funksiyalar quriladi.

Mazkur pargrafning keyingi asosiy natijasi quyidagi teoremadan iborat

Teorema 2. Aytaylik a) va b) shartlar bajarilsin. U holda *Algoritm 1* yordamida qurilgan $\{u(x,t),\eta(x,t)\}$ funksiyalar (7)-(9) masalaning yechimidan iborat bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Moslangan manbali manfiy tartibli modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini tez kamayuvchi funsiyalar sinfida integrallash” deb nomlanib, moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasiga qo‘yilgan Koshi masalasi Zaxarov-Shabat sistemasi uchun teskari masala usuli yordamida yechilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafida quyidagi

$$\begin{cases}\eta_x-2uu_t=G_1\\ u_{xt}+2\eta u+u=G_2\end{cases}\tag{10}$$

sistema qaralgan bo‘lib, bunda $G_1=G_1(x,t)$ va $G_1=G_2(x,t),\quad t\in\mathbb{R}$ funksiyalar yetralicha silliq bo‘lib, $G_1(x,t)=o(1)$ va $G_1(x,t)=o(1)$ on $x\to\pm\infty$ xossalarga ega. (10) sistema ushbu

$$u(x,0)=u_0(x),\ x\in\mathbb{R},\tag{11}$$

boshlang‘ich shart bilan qaralgan bo‘lib, $u_0(x)$ haqiqiy funksiya quyidagi xossalarga ega

1. $\int_{\mathbb{R}}\left(1+|x|\right)^5|u_0(x)|dx<\infty$,

2. $L(0)=i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0 \\ -u_0 & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ operator spektral maxsusliklarga ega emas va $2N$ ta $\xi_1(0),\xi_2(0),\ldots\xi_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, bunda $\operatorname{Im}\xi_k(0)>0$, $\xi_{N+k}(0)=-\xi_k(0)$, $k=1,\ldots,N$.

Aytaylik $u=u(x,t)$ va $\eta=\eta(x,t)$ funksiyalar yetarlicha silliq haqiqiy funksiyalar bo‘lib, ushbu sinfga tegishli bo‘lsin

$$\mathcal{L}=\left\{\begin{array}{c} u\in C^2(\mathbb{R}\times(0,\infty))\cap(\mathbb{R}\times[0,\infty)),\quad \eta\in C^{1,0}(\mathbb{R}\times(0,\infty)); \\ \lim\limits_{x\to\pm\infty}\eta(x,t)=0,\quad t\in\mathbb{R}; \\ \int\limits_{-\infty}^{+\infty}\left(1+|x|\right)\left(|u(x,t)|+|u_x(x,t)|+|u_t(x,t)|+|u_{xt}(x,t)|\right)dx<\infty,\quad t\in\mathbb{R} \end{array}\right\}. \quad (12)$$

Quyidagi lemma o‘rinli

1-Lemma. Agar $\{u(x,t),\eta(x,t)\}$ juftlik (10)-(12) masalaning yechimidan iborat bo‘lsa, u holda $L(t)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlari t vaqt bo‘yicha quyidagicha o‘zgaradi

$$\frac{\partial r^+(\xi,t)}{\partial t}=\frac{i}{2\xi}r^+(\xi,t)-\frac{i}{a^2(\xi)}\int\limits_{-\infty}^{+\infty}\hat{\phi}^T G\phi dx,\qquad \xi\in\mathbb{R}\setminus\{0\},$$

$$\frac{d\xi_n(t)}{dt}=-\frac{i}{b_n\dot{a}\left(\xi_n\right)}\int\limits_{-\infty}^{\infty}\hat{\phi}_n^T G\phi_n dx,\quad n=1,\ldots,N,$$

$$\frac{db_n(t)}{dt}=\left(\frac{i}{2\xi_n}-\frac{i}{2b_n\dot{a}(\xi_n)}\int\limits_{-\infty}^{\infty}\hat{\chi}_n^T G\phi_n\,dx\right)b_n(t).$$

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida quyidagi

$$\begin{cases} \eta_x=2uu_t \\ u_{xt}+2\eta u+u=\sum\limits_{k=1}^{2N}\left(f_{k1}^2+f_{k2}^2\right),\quad x\in\mathbb{R}, \\ Lf_k=\xi_k f_k,\quad k=1,2,\ldots,2N, \end{cases} \quad (13)$$

moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasi ushbu

$$u(x,0)=u_0(x),\ x\in\mathbb{R}, \quad (14)$$

boshlang‘ich shart bilan qaralgan bo‘lib, $u_0(x)$ haqiqiy funksiya quyidagi xossalarga ega

1. $\int_{\mathbb{R}}\left(1+|x|\right)^5|u_0(x)|dx<\infty$,

2. $L(0)=i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0 \\ -u_0 & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ operator spektral maxsusliklarga ega emas va $2N$ ta $\xi_1(0),\xi_2(0),\ldots\xi_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, bunda $\operatorname{Im}\xi_k(0)>0$, $\xi_{N+k}(0)=-\xi_k(0)$, $k=1,\ldots,N$.

Qaralayotgan masalada, $f_k=(f_{k1},f_{k2})^T$ funksiya $L(t)$ operatorninig ξ_k, $k=1,2,\ldots,N$ xos qiymatlariga mos keluvchi xos funksiyalaridan iborat va ushbu

$$\int_{-\infty}^{+\infty} f_{k1}f_{k2}dx=A_k(t),\ k=1,2,\ldots,2N \tag{15}$$

shartni qanoatlantiradi, bu yerda $A_k(t)$ oldindan berilga haqiqiy uzluksiz funksiyalar bo‘lib, ushbu $A_k(t)=A_{N+k}(t)$, $\xi_k=-\xi_{N+k}$, $k=1,2,\ldots,N$ xossaga ega.

Shuningdek, $u=u(x,t)$ va $\eta=\eta(x,t)$ funksiyalar yetarlicha silliq haqiqiy funksiyalar bo‘lib, ushbu sinfga tegishli bo‘lsin

$$\mathcal{L}=\left\{\begin{array}{c} u\in C^2(\mathbb{R}\times(0,\infty))\cap(\mathbb{R}\times[0,\infty)),\quad \eta\in C^{1,0}(\mathbb{R}\times(0,\infty)); \\ \lim\limits_{x\to\pm\infty}\eta(x,t)=0,\quad t\in\mathbb{R}; \\ \int_{-\infty}^{+\infty}\left(1+|x|\right)\left(|u(x,t)|+|u_x(x,t)|+|u_t(x,t)|+|u_{xt}(x,t)|\right)dx<\infty,\quad t\in\mathbb{R} \end{array}\right\}. \tag{16}$$

Ushbu paragrafda olingan asosiy natija quyidagicha

3-Teorema. Agar ushbu $\{u(x,t),\eta(x,t),f_k(x,t),k=1,2,\ldots,N\}$ jamlanma (13) – (16) masalaning yechimi bo‘lsa, u holda potensiali $u(x,t)$ bo‘lgan $L(t)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlari quyidagi evolyutsion tenglamalarni qanoatlantiradi

$$\frac{\partial r^+(\xi,t)}{\partial t}=\frac{i}{2\xi_n}r^+(\xi,t),\qquad \xi=\mathbb{R}\setminus\{0\},$$

$$\frac{d\xi_n}{dt}=0,\quad \frac{db_n(t)}{dt}=\left(\frac{i}{2\xi_n}+\frac{i}{\xi_n}A_n(t)\right)b_n(t),\ \ n=1,2,\ldots,N.$$

3- Teorema natijalaridan foydalanib, (13)-(16) masalaning ushbu

$$u(x,t)=-\frac{2}{\cosh(2x-\gamma(t))},\qquad \eta(x,t)=-\frac{2}{\cosh^2(2x-\gamma(t))},$$

$$f_1(x,t)=\frac{\sqrt{A_1(t)}}{\cosh(2x-\gamma(t))}\begin{pmatrix} e^{-x+\frac{\gamma(t)}{2}} \\ e^{x-\frac{\gamma(t)}{2}} \end{pmatrix}$$

bir solitonli yechimi topilgan, bunda $u(x,0)=-\dfrac{2}{\cosh(2x)}$, $\gamma(t)=\dfrac{1}{2}t+\displaystyle\int_0^t A_1(\rho)d\rho.$

Mazkur bobning uchinchi paragrafida harakatlanuvchi xos qiymatlarga mos moslangan manbali manfiy tartibli mKdF tenglamasi tez kamayuvchi funksiyalar sinfida integrallangan. Ushbu

$$\begin{cases} \eta_x - 2uu_t = -2\sum_{k=1}^{2N} u(f_{k1}g_{k1} - f_{k2}g_{k2}) \\ u_{xt} + u + 2\eta u = \sum_{k=1}^{2N} \frac{d}{dx}(f_{k1}g_{k1} - f_{k2}g_{k2}), \\ (L-\xi_k)f_k = 0,\ (L-\xi_k)g_k = 0, \quad k = 1, 2, \ldots, 2N, \end{cases} \tag{17}$$

sistema

$$u(x,0) = u_0(x), \quad x \in R, \tag{18}$$

boshlang‘ich shart bilan qaralgan bo‘lib, $u_0(x)$ haqiqiy funksiya quyidagi xossaga ega

$$\int_{\mathbb{R}} (1+|x|)^5 |u_0(x)| dx < \infty .$$

Aytaylik, $L(0) = i\begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0 \\ -u_0 & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}$ operator spektral maxsusliklarga ega emas va $2N$ ta $\xi_1(0), \xi_2(0), \ldots \xi_{2N}(0)$ oddiy xos qiymatlarga ega bo‘lib, $\operatorname{Im}\xi_k(0) > 0$, $\xi_{N+k}(0) = -\xi_k(0)$, $k = 1, \ldots, N$ bo‘lsin.

Bundan tashqari, $u = u(x,t)$ va $\eta = \eta(x,t)$ funksiyalar yetarlicha silliq haqiqiy funksiyalar bo‘lib, ushbu sinfga tegishli bo‘lsin

$$\mathcal{L} = \left\{ \begin{array}{c} u \in C^2(\mathbb{R}\times(0,\infty)) \cap (\mathbb{R}\times[0,\infty)), \quad \eta \in C^{1,0}(\mathbb{R}\times(0,\infty)); \\ \lim_{x\to\pm\infty} \eta(x,t) = 0, \quad t \in \mathbb{R}; \\ \int_{-\infty}^{+\infty} (1+|x|)\left(|u(x,t)| + |u_x(x,t)| + |u_t(x,t)| + |u_{xt}(x,t)|\right) dx < \infty, \quad t \in \mathbb{R} \end{array} \right\}. \tag{19}$$

Qaralayotgan masalada $f_k = (f_{k1}(x,t), f_{k2}(x,t))^T$ funksiya $L(t)$ operatorning ξ_k xos qiymatiga mos xos vektor-funksiyasi, $g_k = (g_{k1}(x,t), g_{k2}(x,t))^T$ esa $L(t)g_k = \xi_k g_k$ tenglamaning f_k bilan chiziqli erkli yechimi bo‘lib, ushbu shartlar

$$W\{f_k, g_k\} \equiv f_{k1}g_{k2} - f_{k2}g_{k1} = \omega_k(t), \quad k = 1, 2, \ldots 2N, \tag{20}$$

$$\lim_{\delta\to\infty} \int_{-\delta}^{\delta} (f_{k1}g_{k2} + f_{k2}g_{k1}) dx = A_k(t), \ k = 1, 2, \ldots 2N \tag{21}$$

bajarilsin. Bunda $A_k(t)$ va $\omega_k(t)$ oldindan berilgan uzluksiz funksiyalar bo‘lib, ushbu

$$\omega_k(t) = -\omega_{N+k}(t), A_k(t) = -A_{N+k}(t), \quad \xi_n = -\xi_k, \ k = 1, 2, \ldots N$$

xossalarga ega.

Ushbu paragrafning asosiy natijasi quyidagi teoremada aks etgan

